

**VETERINARIYA ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD 06/29.10.2021.V.139.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

VETERINARIYA ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

USMONOVA XADICHA JO‘RAYEVNA

**QORAMOLLARDA TRIXOFITIYA KASALLIGINING PROFILAKTIKA
VA DAVOLASH USHLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

16.00.03 – Veterinariya mikrobiologiyasi, virusologiyasi, epizootologiyasi, mikologiyasi,
mikotoksikologiyasi va immunologiyasi

**VETERINARIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand-2025

**Veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление диссертации доктора философии (PhD) по ветеринарным
наукам.**

Content of the abstract of doctoral dissertation (PhD) on veterinary sciences

Usmonova Xadicha Jo‘rayevna

Qoramollarda trixofitiya kasalligining proflaktika va davolash uslublarini
takomillashtirish..... 5

Усмонова Хадича Жураевна

Совершенствование методов профилактики и лечения трихофитии крупного
рогатого скота.....21

Usmonova Khadicha Juraevna

Improving methods of prevention and treatment of trichophytosis in cattle41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....45

**VETERINARIYA ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD 06/29.10.2021.V.139.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

VETERINARIYA ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

USMONOVA XADICHA JO‘RAYEVNA

**QORAMOLLARDA TRIXOFITIYA KASALLIGINING PROFILAKTIKA
VA DAVOLASH USHLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

16.00.03 – Veterinariya mikrobiologiyasi, virusologiyasi, epizootologiyasi, mikologiyasi,
mikotoksikologiyasi va immunologiyasi

**VETERINARIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand-2025

Veterinariya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2018.4.PhD/V25 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Veterinariya ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) ilmiy kengash veb sahifasida (www.viti-rasmiv.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.zivonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Mamadullayev Gulmurod Xamidovich**
veterinariya fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar: **Salimov Iloxom Xaitovich**
veterinariya fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Xotamov Akbar Xudoyberdiyevich
veterinariya fanlari falsafa doktori

Yetakchi tashkilot: **Samarqand davlat tibbiyot universiteti.**

Dissertatsiya himoyasi Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD 06/29.10.2021.V.139.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 14.08 soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 141500, Samarqand viloyati, Toyloq tumani, Charog'bon MFY, Yangi Toyloq 1 qishlog'i 67 uy. Tel.: (+9966) 666 56 30; faks: (+9966) 666-56-76; e-mail: nivi@vetgov.uz)

Dissertatsiya bilan Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (4724 - raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 141500, Samarqand viloyati, Toyloq tumani, Charog'bon MFY, Yangi Toyloq 1 qishlog'i 67 uy. Tel.: (+9966) 666 56 30; faks: (+9966) 666-56-76; e-mail: nivi@vetgov.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "29" 07 kuni tarqatildi.
(2025-yil "29" 07 dagi 21 -raqamli reestr bayonnomasi)



B.A.Elmuurodov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
vet.fan doktori, professor

F.S.Pulotov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, vet.f.f.d., katta ilmiy xodim

M.A.Ruzimurodov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari,
vet.f.n, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dermatofitozlar, xususan trixofitiya kasalligi qishoq xo'jaligi hayvonlari, ayniqsa qoramollar orasida keng tarqalgan infeksiyon kasalliklardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda chorvachilikni rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, ekologik toza mahsulot ishlab chiqarish, chorvachilik mahsulotlariga (go'sht, sut, tuxum) bo'lgan talabni qondirish dolzarb masala hisoblanadi. Chorvachilikni rivojlanishida turli infeksiyon va yuqumsiz kasalliklar to'sqinlik qiluvchi asosiy omillardan sanaladi. Jumladan, qoramollar trixofitiyasi zooantroponoz kasalligi bo'lib, chorvachilikda keng tarqalgan, teri va uning hosilalarini zararlab, markaziy asab tizimi, ichki sekretsiya bezlari faoliyatini izdan chiqaradi. «So'nggi 30 yil ichida dermatomikoz kasalliklar tarqalish darajasi bo'yicha Yevropa davlatlarida (Polsha, Vengriya, Xorvatiya, Italiya, Gretsiya) 1,2 foizdan 26,9 foizgacha qayd etilgan. Afrikada 62,4%, Osiyo mamlakatlarida (Eron, Quvayt, Yaman kabi davlatlarda) 74% va Janubiy Amerikada (Braziliya) 44,8 foizni tashkil qiladi. Rossiyada *Microsporum canus* turining tarqalishi 63 foizga kamaygan bo'lsa, *Trichofiton verrucosum* turining tarqalishi 4,9 baravarga oshdi»¹. «Epidemiologik tadqiqotlarga ko'ra, zamburug'li infeksiyalar (dermatomikozlar) butun dunyo bo'yicha aholining 20-25 foizini qamrab oladi»². Shu sababli, trixofitiyaning etiologiyasi, epidemiologiyasi, davolash va profilaktika usullarini o'rganish dolzarb hisoblanadi.

Dunyo miqyosida qoramollar trixofitiyasini tashxislash, zamonaviy usullarda davolash va oldini olish tadbirlarini ishlab chiqish bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlar amalga oshirilgan. So'nggi yillarda noqulay ekologik omillar ta'sirida qoramolchilik xo'jaliklarida zoogigienik qoidalarining buzilishi hayvonlarning tabiiy rezistentligi pasayishiga olib keladi va qoramollarda dermatomikozlar oilasiga kiruvchi *Trichofiton verrucosum*, *Microsporum canus* va *Trichofiton mentagrophytes* kasalliklarini alohida uchrashiga nisbatan birgalikda va aralash holda kechishi kuzatilmoqda. Trixofitiya kasalligi bo'yicha nosog'lom xo'jalikning boshqa epizootik jihatdan sog'lom xo'jaliklar bilan iqtisodiy aloqalarining buzilishi, atrof muhitni sanatsiya qilinmasligi inson salomatligi uchun yetarlicha xavf tug'diradi. Zamburug' infeksiyasi butun dunyoda keng tarqalgan bo'lib, bugungi kunda mikotik infeksiya bilan kasallanish foizi o'sishda davom etmoqda.

Respublikamizda dermatomikoz turiga mansub *trichofiton verrucosum* bilan zararlangan qoramollar qonining gematologik ko'rsatgichlari aniqlangan hamda "Trixovis" va "Trixovak" vaksinalari yaratilib, trixofitiya kasalligini oldini olish va davolashga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari o'tkazilgan. Xususan, qoramollar orasida keng tarqalgan trixofitiya qo'zg'atuvchilarini tarqatuvchi zamburug'larga

¹ Богуш П.Г. Особенности эпидемиологии микроспории и трихофитии в Москве./ П.Г.Богуш, И.М.Бондарев, Т.П.Лапшина, В.М.Лешенко // Матер. 4-го Всеросс. конгр. по медис. микол.- М., 2006 – Т. 8., С 4 – 5.

² Havlickova, B., Czaika, V.A., Friedrich, M. Epidemiological trends in skin mycoses worldwide. *Mycoses*, 51(s4), 2-15. <https://doi.org/10.1111/j.1439-0507.2008.01606.x>

qarshi kurashning zamonaviy, tejamkor hamda yuqori samarali, bezarar usul va vositalarini tadbiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shunday ekan, trixofitiya qo‘zg‘atuvchilarining tarqalishi va ularga qarshi ilmiy asoslangan chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Mazkur dissertasiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»³gi Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-noyabrdagi PQ-4899-son «Biotexnologiyalarni rivojlantirish va mamlakatning biologik xavfsizligini ta‘minlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida»⁴gi, 2022-yil 31-martdagi PQ-187-son, «Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida»⁵gi, 2023-yil 24-avgustdagi PQ-284-son «Chorvachilikda identifikatsiya qilish tizimi va naslchilik sohasini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorlari hamda boshqa me‘yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya doirasidagi tadqiqotlar muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Qoramollar trixofitiyasining turli hayvon, parrandalar va odamlarda uchrashi, klinik belgilari, immunologiyasi, diagnostikasi, davolash, qarshi kurash, tarqalish darajasi va tezligi, qamrab olish radiusi faqat kasallik etiologiyasiga bog‘liq bo‘lib qolmasdan, unga yordamlashuvchi omillarga ham bog‘liqligi bo‘yicha bir qator xorijiy olimlar jumladan, C.Grover, N.Soeta, M.A.Valones, M.Worek, C.Y.Yang, Ghassan, Narish Kumarlar tomonidan olib borilgan va ilmiy nazariy va amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

MDH davlatlari olimlaridan I.A.Sorokina, V.N. Aleshkevich, S.V.Petrovich, B.P.Xmelevskiy, P.N.Pesterev, G.H.Tarassenko, A.X.Sarkisov, V.V.Tropin, U.G.Vapaev hamda P.V.Sorokinlar tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarida trixofitiyaning epizootologiyasi tadqiq qilingan, maxsus profilaktika vositalari ishlab chiqilgan va klinik ko‘rinishi asosida dermatomikozlarning turlari aniqlangan.

Respublikamiz olimlaridan Sh.T.Rasulov, A.S.Lebedev, M.P.Parmanov, U.Ya.Uzoqov, P.B.Babaev, R.Xaitov hamda D.I.Saydalievlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarida kasallikning etiologik omillari, oldini olish uchun nazariy

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-sonli farmoni.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-noyabrdagi «Biotexnologiyalarni rivojlantirish va mamlakatning biologik xavfsizligini ta‘minlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-4899-son qarori.

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdagi «Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida»gi PQ-187-son qarorida.

va amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Rossiya eksperimental veterinariya instituti (VIEV) va O'zbekistonlik olimlar M.P.Parmanov va D.I.Saydaliyevlar tomonidan hamkorlikda "Trixovis" va "Trixovak" vaksinalari yaratilgan hamda xo'jaliklarga joriy qilingan.

Respublikamizning ayrim viloyatlari xududi misolida zotli qoramollar trixofitiasining epizootologiyasi, klinik belgilar, kasallikni kelib chiqishiga sabab bo'luvchi omillar, gematologik tekshirishlar, qo'zg'atuvchi (dermatomikoz) turlarining aralash holda uchrashi, oldini olishda va davolashda samarali vositalar bo'yicha tadqiqot ishlari olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Veterinariya ilmiy tadqiqot instituti Tuberkulyoz laboratoriyasi ilmiy-tadqiqot tematik rejasining ITD-DVK 2023-2024 yillarda bajariladigan ilmiy tadqiqot faoliyati bo'yicha "Respublikada qoramollar tuberkulyozining profilaktikasi, qarshi kurashishning takomillashtirilgan uslub va vositalarini yaratish hamda joriy etish" mavzusidagi ish dasturi doirasida "Qoramollar trixofitiasini davolashning yangi uslublarini aprobatsiyadan o'tkazish" mavzu rejasi va xo'jalik shartnomalari asosida "Veterinariya bo'yicha ilmiy amaliy yordam ko'rsatish" (2021-2023 yy. №23/07) shartnomalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Qoramollarda trixofitiya kasalligini erta aniqlash, kasallikka qarshi vitaminlar, antiparazitar va antifungal vositalarni kompleks qo'llash orqali samarali profilaktika va davolash usullarini takomillashtirish.

Tadqiqotning vazifalari: Qashqadaryo, Samarqand va Andijon viloyatlaridagi ayrim naslli fermer xo'jaliklari doirasida qoramollar trixofitiasining epizootologiyasini o'rganish;

naslli qoramolchilik fermer xo'jaliklarida trixofitiya kasalligining mavsumiyli va yoshga oid dinamikasini o'rganish;

fermer xo'jaliklar kesimida tabiiy sharoitda qoramollar trixofitiasining etiologik omillarni o'rganish;

mikologik usullar yordamida (dermatomikoz) turiga kiruvchi *Trixofiton verrucosum* qo'zg'atuvchisini *Microsporum canus* va *Trixofiton mentagrophytez* turlarini differensial diagnostikasini ishlab chiqish;

qoramollar trixofitiasini oldini olishda antiparazitar preparatining samaradorligi va davolash uslublarini takomillashtirish;

qoramollar trixofitiya kasalligining epizootologiyasi, diagnostikasi va davolash uslublari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

Tadqiqotning ob'ekti Qashqadaryo, Samarqand va Andijon viloyatlaridagi qoramolchilik fermer xo'jaliklarida jami tekshirilgan 2289 bosh qoramollardan 420 bosh trixofitiya bilan zararlangan hayvonlar, teri hosilalari namunalari, trixofitiyaga qarshi LTF-130 vaksinasi, multi-mineral, vitaminli, antiparazitar va antifungal preparatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti trixofitiya bilan zararlangan qoramollar va buzoqlarning klinik, epizootologik ma'lumotlari, mikologik va morfologik

o'zgarishlari, kasallikni davolash va oldini olish uslub va vositalari, qoramollar qonining gematologik ko'rsatgichlari.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotlarda klinik, epizootologik, bakteriologik, mikroskopik, gematologik, morfologik, mikologik tekshirishlar hamda statistik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Qashqadayo, Samarqand va Andijon viloyatlarining 13 ta xo'jaliklarida olib borilgan epizootologik tahlillar natijasida jami 2289 bosh qoramoldan 420 boshida (18,3%) trixofitiya kasalligi aniqlangan. Hududlar kesimida kasallik tarqalish darajasi Qashqadaryoda 32,0%, Samarqandda 45,6% va Andijon viloyatida 8,5% tarqalganligi aniqlangan;

Qashqadaryo viloyati hududlarida trixofitiya kasalligining mavsumiy tarqalishi qishda 33%, bahorda 28,0%, yozda 1,6%, kuzda 13,3%. Samarqand va Andijon viloyatlari hududlarida trixofitiya kasalligining tarqalishi mos ravshda, qishda 13-19%, bahorda 4,6-12,6%, yozda 0,6-1,3%, kuzda 4,6-7,6 foizgacha uchrashi aniqlangan;

Yoshga oid tarqalish darajasi o'rganilganda bir yoshgacha bo'lgan, jami 320 bosh qoramollarning 38,8 foizi, katta yoshdagi, jami 100 bosh qoramollarning 6,8 foizi trixofitiya bilan kasallanganligi aniqlangan;

Mikologik usullar yordamida *Trixofiton verrucosum* (xlamidiosporiya), *Microsporum canus* (makrokanidiya) va *Trixofiton mentagrophytes* (makrokanidiya-mikrokanidialarni) koloniyalarni o'sishi, kultura xususiyati va mikroskop ko'rinishiga qarab turlarning differensial diagnostikasi ishlab chiqilgan;

Qoramollar trixofitiasini oldini olishda LTF-130 vaksinaga taqqoslab, qoramollar ekto- va endoparazitlariga qarshi har 3 oyda ikki marta qo'llanilgan Ivermektin (1%) preparati qoramollar trixofitiasiga qarshi 100% proflaktik samara berishi aniqlangan;

Qoramollar trixofitiasini davolash va oldini olishda LTF-130 vaksinasi bilan birgalikda vitaminlar, antiparazitar hamda antifungal preparatlar qo'llanilib, samarasi tez va qulay usulda qo'llaniladigan davolash uslublari bo'yicha uslubiy tavsiyanoma ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Zotli qoramollar va aholi qaramog'idagi chorva mollari orasida trixofitiya boyicha epizootik ma'lumotlar olingan, kasallikning diagnostikasi, klinik belgilari, qo'zg'atuvchining kultural morfologik, biologik va mikologik usullar yordamida dermatomikoz turiga kiruvchi *Trixofiton verrucosum* qo'zg'atuvchisining *Microsporum canus* va *Trixofiton mentagrophytes* turlari differensiatsiya qilingan;

LTF-130 vaksinasi, probiotik, antiparazitar va antifungal preparatlarning qishloq xo'jalik va laboratoriya hayvonlari organizmiga allergik va toksik ta'siri aniqlangan;

Naslli qoramollar trixofitiasini klinik, mikologik va bakteriologik tekshirish yordamida tashxislash uslublari ilmiy asoslangan;

Qoramollar trixofitiya zamburug'ining epizootik, klinik, mikologik va zamonaviy davolash hamda oldini olishning samarali chora-tadbirlari ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi, izlanishlarning zamonaviy vositalar va yangi ishlab chiqilgan uslublardan foydalangan holda o'tkazilganligi, morfologik, mikologik va zoomuxandislik usullardan foydalanib boshlang'ich ma'lumotlarga biometrik ishlov berilganligi, olingan nazariy natijalarning amaliyot bilan mos kelishi, tadqiqot natijalarining xorijiy va mahalliy tajribalar bilan taqqoslanganligi, tajribalar dalolatnomalarga asoslanganligi, olingan natijalarni mutaxassislar tomonidan ijobiy baholanganligi va izlanish natijalarining ishlab chiqarishga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Samarqand, Qashqadaryo va Andijon viloyatlarining ayrim qoramolchilik fermalarida trixofitiya kasalligining epizootik holati, kasallanish darajasi, differensial diagnostikasi bo'yicha ilk bor ma'lumotlar olinganligi, kasallikni davolash va oldini olishda yangi uslub va vositalar qo'llashning ilmiy asoslanishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qoramollar trixofitiyasiga dastlabki diagnoz qo'yish, epizootologik, klinik kechishi, boshqa (dermatomikoz) *Trixofiton verrucosum*, *Microsporum canus* va *Trixofiton mentagrophytes* turlarini differensial diagnostikasi, Qoramollar trixofitiyasini oldini olish va davolash uchun veterinariya mutaxassislariga kerakli chora tadbirlarni qo'llash bo'yicha "Vitaminlar, Antiparazitar va Antifungal" preparatlaridan foydalanib, tajriba natijalarining ilmiy asoslangan amaliy tavsiyalari berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qoramollar trixofitiya kasalligining profilaktika va davolash uslublarini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

"Qoramollar trixofitiya kasalligining epizootologiyasi, diagnostika va davolash uslublari" bo'yicha uslubiy tavsiyanoma amaliyotga joriy etilgan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2025 yil 26 maydagi 02/23-367-son ma'lumotnomasi). Natijada qoramollar trixofitiyasi bo'yicha epizootik ma'lumotlar boyitilgan hamda qoramollarda uchraydigan trixofitiya kasalligini samarali davolash va oldini olish imkoniyati yaratilgan;

2023-2024 yillar davomida qoramollar trixofitiyasini bakteriologik uslubda differentsial diagnostika qilish uslubi Samarqand viloyati Payariq, Pastdarg'om, Oqdaryo, Qo'shrabod tumani shaxsiy xonadonlaridagi, Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani "Yurt riztqi naslchilik" MChJ fermer xo'jaligi, Andijon viloyati Shahrixon tumani "Guliston nurli istiqboli" fermer xo'jaliklardan keltirilgan jami 157 bosh qoramollarda joriy etilgan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2025 yil 26 maydagi 02/23-367-son ma'lumotnomasi). Natijada dermatomikoz turiga mansub zamburug'larning *Trixofiton verrucosum* qo'zg'atuvchisining *Microsporum canus* va *Trixofiton mentagrophytes* turlarini aniqlashga erishilgan;

Trixofitiya bilan kasallangan qoramollarni LTF-130 vaksinasi, vitaminlar,

antiparazitar va antimikotik preparatlar asosida davolashning yangi 4 xil uslubi ishlab chiqilgan va Samarqand viloyati Pastdarg‘om tuman “Ravot” va “Yuqori Bog‘anali” aholi chorva mollari, Andijon viloyati Shahrixon tumani “Imkon chorva”, “Inomjon fayz”, “Guliston nurli istiqboli”, Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani “Yurt-rizqi naslchilik” MChJ chorvachilik xo‘jaliklaridagi trixofitiya bilan kasallangan qoramollarda joriy etilgan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining 2025 yil 26 maydagi 02/23-367-son ma‘lumotnomasi). Natijada trixofitiya bilan kasallangan qoramollarni yangi 4 xil uslublar yordamida davolash orqali 100 foiz terapevtik samara olingan va sarflangan 1 so‘m xarajatga 5,26 iqtisodiy samara olishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari jami 10 ta, jumladan 7 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 14 ta ilmiy maqola, jumladan 7 ta xorijiy va 6 ta Respublika ilmiy jurnallarida nashr etilgan. Olingan natijalar asosida 1 ta tavsiyanoma chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati, mavzuning Respublika fan va texnologiyalarning rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, predmetlari tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Adabiyot ma‘lumotlari va ularning tahlili**» deb nomlangan birinchi bobi 4 qismdan iborat bo‘lib, «**Qoramollar trixofitiyasining umumiy tavsifi**» deb nomlangan birinchi qismida Qoramollar trixofitiyasining umumiy tavsifi, kasallik qo‘zg‘atuvchilarining o‘ziga xos xususiyati borasidagi xorijiy va respublikamiz olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarining natijalari bayon qilingan. Adabiyot manbaalari tahliliga ko‘ra, trixofitiya qo‘zg‘atuvchisi mikoziar-oilasiga mansub, dermatomekoz turiga kiruvchi, yuqori iqtisoslashgan zamburug‘lar guruhi bo‘lib, evolyusiya jarayonida odam va hayvonlar to‘qimalariga kirish va rivojlanishga moslashgan hamda kasallik chaqiradigan eng parazit qo‘zgatuvchilar turiga kirishini hisobga olish lozimligi ko‘pgina olimlar tomonidan ta‘kidlab o‘tilgan. «Qoramollar

trixofitiasining epizootologiyasi va qo'zg'atuvchining biologik xususiyatlari» deb nomlangan ikkinchi qismida umumiy dermatomikoz turiga kiruvchi trichophiton qo'zg'atuvchilarini epizootologik ma'lumotlariga ko'ra, ushbu tur qo'zg'atuvchilari butun dunyoda tarqalgan bo'lib, o'z xossalariga ega ekanligi, Dermatomikoz katta ahamiyatga ega bo'lib, turli manbalarga ko'ra, ularning aholi orasida tarqalishi 10-20% tashkil etmoqda. Umumiy zoonoz kasalliklari patologiyasining 30-70 foizini teri kasalliklari tashkil yetganligi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. «Qoramollar trixofitiasining klinik kechishi va diagnostika uslublari» deb nomlangan uchunchi qismida *Antropofil* qo'zg'atuvchisining patogenlari ko'pincha trixofitozning yuzaki va surunkali shakllarini, zoofil patogenlar esa yuzaki, infiltrativ va yiringli shakllarini keltirib chiqarishi bilan tavsiflanadi. Trixofitiya kasalligini tezkor aniqlash maqsadida diagnostikumlar ustida tadqiqot ishlari olib borilayotganligi haqida bayon qilingan. «Qoramollarda trixofitiyani davolash va oldini olish usullari» deb nomlangan birinchi bobning to'rtinchi qismida, kasallikni davolash va oldini olishda kechtirmasdan o'z vaqtida LTF-130 vaksinani ineksiya qilish, dori preparatlardan unumli foydalanib ko'rsatilgan me'yorlarda malham shakllarda tayyorlab, unumli davolash ishlarini yo'lga qo'yishdan iboratdir.

Dissertatsiyaning «**XUSUSIY TADQIQOTLAR**» deb nomlangan ikkinchi bobida «**Tadqiqot materiallari va uslublari**» qismida tadqiqot joyi, ob'ekti va uslublari haqida yangi dori vositalarining tavsifi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Tadqiqotlar 2023-2025 yillar davomida Veterinariya ilmiy tadqiqot institutining Tuberkulyoz, Samarqand viloyati hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazi bakteriologiya laboratoriyasining maxsus boksida amalga oshirildi.

2023-2024 yillar davomida Qashqadaryo viloyatdagi Kasbi va Mirishkor tumanlari, Samarqand viloyati Pastdarg'om, Payariq tumanlari va Andijon viloyatining Shahrixon tumanlaridagi chorvachilik fermer xo'jaliklari bilan hamkorlikda tajribalar olib borilgan.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida Respublikamiz hududlari bo'yicha jami 2289 bosh qoramollar trixofitiya kasalligiga tekshirish uchun patologik namunalari olingan. Qoramollar trixofitiasining hozirgi kundagi tarqalish darajasi, turli hududlarda tarqalgan asosiy dermatomikoz turlari, fasllar bo'yicha mavsumiylik va yoshga oid dinamikasi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Mazkur tekshirishlar teri va teri hosilalari namunalari mikologik va mikroskopik usullarda tekshirildi. Davolash va oldini olishda "Vitaminlar, Antiparazitar va Antifungal" dori vositalaridan foydalanildi.

Dissertatsiyaning «**Respublikamizning ayrim hududlarida qoramollar trixofitiasining epizootik holati, etiologik omillari va diagnostikasini tahlil qilish**» deb nomlangan uchunchi 7 qismdan iborat. Ushbu bobning «Qashqadaryo, Samarqand va Andijon viloyatlari hududlarida qoramollar trixofitiasining epizootik holati, mavsumiyliги va yoshga oid kechish dinamikasi» deb nomlangan qismida Qashqadaryo, Samarqand va Andijon viloyatlari hududlarida olib borilgan trixofitiya kasalligining epizootologik tadqiqotlar natijasida jami 13 ta

qoramolchilik fermasida 2289 qoramol tekshiruvdan o'tkazildi. Tekshirilgan qoramollar orasida 420 bosh hayvonda trixofitiya bilan kasallanganligi aniqlandi (18,3%). Qashqadaryo viloyati mazkur fermer xo'jaliklarida jami trixofitiya 32,0% tarqalganligi aniqlandi. Samarqand viloyatida tekshirilgan fermer xo'jaliklarida ushbu kasallik 45,6 foizni tashkil etdi (1-jadval).

1-jadval

Chorvachilik fermalarida “qizil-cho'l” va “simmental” zotli qoramollar trixofitiyasi bo'yicha epizootik holat.

№	Xo'jalik nomi	Tekshirish o'tkazilgan qoramol bosh soni	Kasallik aniqlangan qoramol bosh soni	Trixofitiya ulushi, % hisobida
<i>Qashqadaryo viloyati Kasbi va Mirishkor tuman fermalari (“qizil-cho'l”).</i>				
1	“Yurt riztqi naslchilik” MChJ	520	145	27,8
2	“Ochilova Dilnoza”	65	28	43,1
3	“Umarov O'tkir”	94	38	40,4
4	“Namozov Abbas”	36	18	50
	Jami	715	229	32,0
<i>Samarqand viloyati Pastdarg'om va Payariq tuman fermalari (“simmental”).</i>				
1	“Dilrabo farm”	33	18	54,5
2	“Rustam Dilshod dalasi”	22	12	54,5
3	“Rajabov Suyar Nurbog'i”	30	15	50
4	“Mirvali Abror Begali”	33	10	30,3
5	“Munavvar ona”	33	14	42,4
	Jami	151	69	45,6

Andijon viloyatida tekshirilgan fermer xo'jaliklarida jami trixofitiya 8,5% tarqalganligi aniqlandi (2-jadval).

2-jadval

Chorvachilik fermalarida (“golshtin”) zotli qoramollar trixofitiyasi bo'yicha epizootik holat.

№	Xo'jalik nomi	Tekshirish o'tkazilgan qoramol bosh soni	Kasallik aniqlangan qoramol bosh soni	Trixofitiya ulushi, % hisobida
Andijon viloyati Shahrixon tuman fermalari				
1	“Guliston nurli istiqboli”	480	36	7,5
2	“Imkon chorva”	630	47	7,5
3	“Inomjon fayz”	280	28	10
4	“Shermat ota”	33	11	33,3
	Jami	1423	122	8,5

Bizning tadqiqotlarimizda kasallikning mavsumiyligini o'rganish natijasida 2023 yil davomida asosan kuz va qish fasllarida kasallik ko'proq uchrashi aniqlandi. 2024 yil mavsumida kasallik bahor va yoz fasllarida kuzatildi. 2023-2024 yillarda turli yoshdagi qoramollar asosan kuz faslining oktabr oylarida, qish faslining esa fevral oylarida bahor faslida mart-aprel oylarida yoz faslining avgust oylarida trixofitiyaning tangachasimon shakllari ko'p uchraganligi tadqiqotlarimiz davomida aniqlandi.

Tadqiqotlar davomida iyul oylarida bir yoshdan katta qoramollarda trixofitiya kuzatildi. Zamburug'larning hayvon organizmida patologik jarayonlarni paydo qilishida, kasallikning rivojlanishiga yil fasli ham ta'sir ko'rsatadi. Trixofitiya qo'zg'atuvchisi erta bahor oylarida ko'p uchrab, kuz fasllarida kam uchradi. Yanvar –mart oyida trixofitonlar intensiv rivojlanishi va o'sishi kuzatilgan bo'lsa, may-avgust oylariga o'sish intensivligi susayishi kuzatilgan. Sentabr-oktabr oylarida zamburug'lar yana faol rivojlanib kuchli patologik jarayonlar hosil qilishi aniqlandi.

3-jadval


Qashqadaryo, Samarqand va Andijon viloyatlaridagi ayrim tuman xo'jaliklar sharoitida qoramollarda tirixofitiya kasalligining mavsumiyligini aniqlash.

№	Xo'jalik nomi	Tekshirish o'tkazilgan qoramol bosh soni	Xo'jaliklarda fasllar bo'yicha kasallikni aniqlash qoramollar bosh soni foizda				Umumiy kasallanish qoramol bosh con
			qish	bahor	yozi	kuz	
Qashqadaryo viloyati Kasbi va Mirishkor tuman fermalari ("qizil-cho'l") zotlarida.							
1	"Yurt rizqi naslchilik" MChJ	520	65	52	4	24	145
2	"Ochilova Dilnoza"	65	12	11	0	5	28
3	"Umarov O'tkir"	94	17	9	1	11	38
4	"Namozov Abbos"	36	5	13	0	0	18
	Jami	715	99:33%	85:28,0%	5:1,6%	40:13,3%	229
Samarqand viloyati Pastdarg'om va Payariq tuman fermalari ("simmental") zotlarida.							
1	"Dilrabo farm"	33	9	4	0	5	18
2	"Rustam Dilshod dalasi"	22	10	2	0	0	12
3	"Rajabov Suyar Nurbog'i"	30	8	3	1	3	15
4	"Mirvali Abror Begali"	33	5	2	0	3	10
5	"Munavvar ona"	33	7	3	1	3	14
	Jami	151	39:13%	14:4,6%	2:0,6%	14:4,6%	69
Andijon viloyati Shahrixon tuman fermalari ("golshtin") zotlarida.							
1	"Guliston nurli istiqboli"	480	18	11	2	5	36
2	"Imkon chorva"	630	21	14	1	11	47
3	"Inomjon fayz"	280	13	9	0	6	28
4	"Shermat ota"	33	5	4	0	1	11
5	Jami	1423	57:19%	38:12,6%	4:1,3%	23:7,8%	122

2023-2024 yillarda turli yoshdagi qoramollarda asosan kuz faslining oktabr, qish faslining fevral, bahor faslida mart-aprel, yoz faslining iyun oylarida trixofitiya kasalligi ko'p uchradi. Respublikamizning ayrim xo'jaliklari sharoitida qoramollarda trixofitiya kasalligining mavsumiyligini o'rganish natijalariga ko'ra, maksimal kasallanish darajasi mart-oktabr oylarida trixofitiyani intensiv rivojlanishi va o'sishi kuzatilgan bo'lsa, may-avgust oylarida o'sishning pasayishi kuzatildi (3-jadval).


Respublikamizning Qashqadaryo, Samarqand va Andijon viloyatlaridagi 13 ta xo'jaliklari sharoitida qoramollarda trixofitiya kasalligining mavsumiyligini o'rganish natijalariga ko'ra maksimal kasallanish darajasi mart-oktyabr oylarida qayd etildi. Mart-oktyabr oylarida trixofitiyani intensiv rivojlanishi va o'sishi kuzatilgan bo'lsa, may-avgust oylarida o'sish susayish kuzatildi. Sentyabr-oktyabr oylarida zamburug'lar yana faol rivojlanib kuchli patologik jarayonlar hosil qilishi isbotlandi. Ob-havoning isishi, nisbiy namlikning pasayishi va albatta, bahor-yoz oylarida ratsionlar ko'k massa bilan boyitilishi natijasida trixofitiya bilan kasallanish darajasi pasayishi kuzatildi; Iyun oyida 18,2%, iyulda 15% avgustda 3,5 foizni tashkil etdi. Havo harorati pasayishi hamda organizmda ba'zi bir vitaminlar etishmovchiligi kasallanish darajasini yana ko'tarilishi kuzatildi. Shunday qilib, xulosa qilish mumkunki uzoq kuzatishlar Sentabr-oktabr oylarida zamburug'lar yana faol rivojlanib kuchli patologik jarayonlar hosil qilishi aniqlandi. Ob-havoning isishi, nisbiy namlikning pasayishi va albatta, bahor-yoz oylarida ratsion ko'k massa bilan boyitilishi natijasida trixofitiya bilan kasallanish darajasi pasayishi kuzatildi.

“Qizil cho'l” zotli qoramollarda trixofitiya kasalligining mavsumiy dinamikasini aniqlashda Qashqadaryo viloyati Kasbi va Mirishkor tumani (“qizilcho'l”) zotlaridan iborat “Yurt rizqi naslchilik” MChJ, “Ochilova Dilnoza”, “Umarov O'tkir”, “Namozov Abbas” naslchilik fermalarida mavsumiylik darajasini o'rganish davomida qish faslida jami 99 bosh qoramollarda kasallik kuzatilib, xo'jaliklarda mavsumiylik darajasi 33 foizni tashkil etdi. Bahor faslida jami 85 bosh qoramollar zararlanib, mavsumiylik darajasi 28%, yoz faslida jami 5 bosh qoramollarda uchrab, mavsumiylik darajasi 1,6%, kuz faslida jami 40 bosh qoramollarda uchrab, mavsumiylik darajasi 13,3% tashkil etganligi tadqiqotlarda aniqlandi (1-rasm).




1-rasm. “qizil cho'l” zotli qoramollarda trixofitiya kasalligining mavsumiy dinamikasi.

“Simmental” zotli qoramollarda trixofitiya kasalligining mavsumiy dinamikasini aniqlashda Samarqand viloyati Pastdarg‘om va Payariq tuman fermalari (“simmental”) zotlaridan iborat “Dilrabo farm”, “Rustam Dilshod dalasi”, “Rajabov Suyar Nurbog‘i”, “Mirvali Abror Begali”, “Munavvar ona” naslchilik fermalarida qish faslida jami 39 bosh qoramollarda kasallik kuzatilib, xo‘jaliklarda mavsumiylik darajasi 13 foizni tashkil etdi. Bahor faslida jami 14 bosh qoramollar zararlanib, mavsumiylik darajasi 4,6%, yoz faslida jami 2 bosh qoramollarda uchrab, mavsumiylik darajasi 0,6%, kuz faslida jami 14 bosh qoramollarda uchrab, mavsumiylik darajasi 4,6% tashkil etganligi tadqiqotlarda aniqlandi (2-rasm).



2-rasm. “Simmental” zotli qoramollarda trixofitiya kasalligining mavsumiy dinamikasi.

“Golshtin” zotli qoramollarda trixofitiya kasalligining mavsumiy dinamikasini aniqlashda Andijon viloyati Shahrixon tuman fermalari (“golshtin”) zotlaridan iborat “Guliston nurli istiqboli”, “Imkon chorva”, “Inomjon fayz”, “Shermat ota” naslchilik fermalarida qish faslida jami 57 bosh qoramollarda kasallik kuzatilib, xo‘jaliklarda mavsumiylik darajasi 19 foizni tashkil etdi. Bahor faslida jami 38 bosh qoramollar zararlanib, mavsumiylik darajasi 12,6%, yoz faslida jami 4 bosh qoramollarda uchrab, mavsumiylik darajasi 1,3%, kuz faslida jami 23 bosh qoramollarda uchrab, mavsumiylik darajasi 7,8% tashkil etganligi tadqiqotlarda aniqlandi (3-rasm).




3-rasm. “Golshtin” zotli qoramollarda trixofitiya kasalligining mavsumiy dinamikasi.

Demak, trixofitiya kasalligi mavsumiy bo‘lmagan bo‘lib, yuqori kasallanish darajasi qish va bahor oylarida kuzatildi. Ushbu oylarda trixofitiya bilan kasallangan qoramollar soni yoz oylariga nisbatan 3 barobar ko‘proq qayd etildi.

2023-2024 yillar davomida Qashqadaryo, Samarqand va Andijon viloyatlarida fermer xo‘jaliklarida qoramollarning yoshiga oid jami 2289 bosh qoramollar trixofitiyaga tekshirish natijasida 420 bosh qoramollarda kasallik turli yoshlarda uchrashi tadqiqotlarimiz davomida aniqlandi.

Tadqiqotlarimiz davomida bir yoshgacha bo‘lgan jami, 823 bosh qoramol tekshirildi. Shundan 320 bosh 38,9% kasallanganligi aniqlandi. Bir yoshdan katta 1466 bosh qoramol tekshirilgan bo‘lsa, shundan 100 bosh (6,8%) qoramolda trixofitiya kasalligi aniqlandi. Olib borilgan tadqiqotlarimiz davomida, qoramollar orasida trixofitiya kasalligi har qanday yoshda uchrashi va eng ko‘p bir yoshgacha bo‘lgan hayvonlarda trixofitiya kasalligi uchrashi aniqlandi (4-rasm).



4-rasm. naslli qoramollarda trixofitiya kasalligining yoshiga oid dinamikasi.

“Turli zotli qoramollarda trixofitiya kasalligining klinik xususiyatlaridagi farqlar” deb nomlangan ikkinchi qismida Kasallikni boshlanish davridan 10 kun o‘tgach, buzoqlarda trixofitiyaga xos belgilar namoyon eta boshladi. 2024 yil davomida trixofitiya kasalligini tangacha shakllari 2023 yillarga nisbatan ko‘p uchradi.

Qoramollarda uchraydigan trixofitiya kasalligi hayvon zotiga qarab turlicha kechishi, klinik belgilari, shuningdek immunologik javob reaksiyasi bilan farqlanishi tadqiqotlar davomida aniqlandi. Chunki har bir zot o‘ziga xos fiziologik va immunobiologik xususiyatlarga ega bo‘lib, bu kasallikning namoyon bo‘lishida sezilarli rol o‘ynaydi. Masalan, sut yo‘nalishidagi zotlarda (Golshtin-qizil-cho‘l) kasallik ko‘proq yosh buzoqlarda, tananing bosh, bo‘yin va yelkasi sohalarida tarqalgan holatda namoyon bo‘lsa, go‘sht yo‘nalishidagi zotlarda (simmental) kasallik nisbatan og‘ir kechdi va chuqurroq teri qatlamlarini zararlashi kuzatildi. Mahalliy zotlar esa ba‘zan yengil yashirin shakldagi klinik belgilarni kuzatdik.

Shu bois, trixofitiya kasalligini aniqlashda hayvonning zotiga alohida e‘tibor qaratish, klinik belgilarni to‘g‘ri baholash, differensial diagnostika va samarali davolash chora-tadbirlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etdi. Turli zotli qoramollarda trixofitiya kasalligini o‘rganish kasallik kechishining individual xususiyatlarini tahlil qilish, profilaktika va davolash strategiyalarini takomillashtirish imkonini ham berdi. Hayvonlarni ayniqsa buyin, elka, ko‘zning yuqori va pastki qovog‘larida, tumshug‘ining yuqorigi va quloq ostida nisbatan qalin, chuqur qobiqlar paydo bo‘ldi, ba‘zilarida esa kulrang-oq tugunchalar hosil bo‘ldi. Jarohatlangan joy qobiq va kepaklar bilan qoplanganligi aniqlandi, qobiqlar sezilarli darajada kattalashib, o‘rtacha 5/7/9 sm ga yetadi. Dog‘lar buzoqlarning

bosh, bo‘yin, yelka, lablar, gavda va ko‘z atrofida hamda oyoqlarda bir nechta tugunli yaralar hosil bo‘lganligi kuzatildi. Dog‘larning ko‘rinishi boshqa kasallik klinik belgilaridan farqli ularoq trixofitiya rivojlangan joyida chegara hosil qilgan holda ko‘rindi.

